

SHEVA SO'ZLARINING IZOHLI LUG'ATLARDA BERILISHI

Eshmirzayeva Nilufar Yoqub qizi

Termiz davlat universiteti magistratura bo'limi

lingvistika-o'zbek tili ta'lif yo'nalishi II kurs talabasi

Dunyo tilshunosligida dialekt (sheva)lardagina uchraydigan dehqonchilik, chorvachilik va turli kasb egalari nutqiga xos leksikani lug'atlashtirish, leksikografik, leksikologik tadqiqi boshqa rivojlangan tilshunoslik maktablari qatori rus tilshunoslari uchun ham asosiy o'rganish ob'yektiga aylandi. XX asrning boshlarida yuzaga kelgan ushbu tadqiq usuli o'zbek tilshunosligida ham samarali ilmiy tadqiqotlarni vujudga kelishiga asos bo'ldi.

O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi o'zbek tilshunosligi zimmasiga bajarilishi lozim bo'lgan katta vazifalarni yukladi. Ana shu vazifalardan biri xalq shevalari lug'at xususiyatlarini tadqiq qilishdir. Sheva leksikasi bo'yicha kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dialektal farqlar o'zbek tilida juda ko'p va xilma-xildir. Shuning uchun o'zbek tili ayrim shevalarining leksik xususiyatlarini o'rganish o'zbek dialektologiyasida eng dolzarb va muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, umumturkiy tillar negizida o'zbek tili leksikografiysi tamadduni va unda shevaga oid leksikani aks ettirishning dastlabki tashabbuslari XI asrda Mahmud Koshg'ariyning qomusiy asari "Devonu lug'ati-t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) bilan boshlanadi. Mahmud Koshg'ariy bir necha yillar davomida o'z davridagi turkiy qabilalarni kezib, ushbu qabilalar tilida mavjud lug'at birliklarinini izohlari va misollari bilan birga yig'ganligi hamda ularni tizimli tartiblab o'z davri uchun qomusiy lug'at tuzganligi haqidagi aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Olim so'zlarning turli ma'nolari va ma'no nozikliklarini izohlash bilan cheklanmay, turli qabila shevalari o'rtasidagi xarakterli fonetik va morfologik farqlarni ham ko'rsatib o'tadi. Masalan:

AG'IL – og'il; qo'y og'ilxonasi; o'g'uzlar qo'yning qiyini og'il deydilar²¹.

ABA – ona (o'g'uzcha). Qorluq turkmanlari qattiq P bilan apa deydilar.

ABA – (qalin a bilan) ayiq (qipchoqcha).

ABA – ota (tubutlar tilida) Bu arab tilining izi bo'lsa kerak. Chunki tubutlar Yamandan qochib, turklar shahriga kelib bola chaqa qilib qolgan bir kishidan tarqalgan. Ular Banu Sobitning avlodlaridir²².

YeZI – xo'jayin, ega. Ezim ne ter. Xo'jayinim nima deydi.

YeZI – xudo. Ezimiz jarlig'i. Xudo buyrug'i²³.

Misollardan anglashilganidek, Mahmud Koshg'ariy ham o'z lug'atida shevaga oid so'zlarning leksik, semantik, dialektal, fonetik, morfologik, etimologik xususiyatlariga

²¹ Кошгариј Махмуд. Девону лугати-т-турк. III томлик. I том. – Тошкент: ССР Фанлар академияси нашриёти – 1960. – Б.103

²² Кўрсатилган манба: – Б. 113.

²³ Кўрсатилган манба: – Б. 114.

alohida urg'u berib o'tadi. Yuqorida keltirilgan *aba* leksemasi misolida ko'rganimiz kabi asarda shevaga oid so'zlar ham o'zaro shakl va ma'no munosabatiga ega ekanligi ko'rsatib beriladi.

Yuqorida keltirilgan dialektal birliklarni o'zbek tilining izohli lug'atida sheva birliklari sifatida qayd qilingan leksik birliklar sirasida uchratishimiz ularning qadimiy umumturkiy kelib chiqishga ega ekanligini ko'rsatadi. Ikkinci turkum sheva so'zlarimiz o'zlashma lisoniy birlik xarakterida bo'lib, ular asosan, arab, fors, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan hamda sheva so'zlar sifatida muayyan maqsadlarda foydalаниlib kelinayotgan leksik birliklar sanaladi. 2006-2008 yillarda nashr qilingan, 80 ming so'z va so'z birikmalarini o'z ichiga olgan 5 jiddlik izohli lug'atidan joy olgan fors tilidan o'zlashgan sheva so'zlarini quyida kuzatamiz.

Tillarning taraqqiy etishi natijasida shu tillarning leksik birliklarini o'zida mujassamlashtirgan, ularning ma'nolarini tavsiflab keluvchi lug'atlar shakllana boshladi. Ushbu lug'atlarga adabiy tilda qo'llanuvchi leksik birliklar qamrab olinib, qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, bu kabi lug'atlarga shevalardan ham so'zlar sarab olingan, shevalarda qo'llanuvchi so'zlar ham kiritiladi. Xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi leksemalar o'rinni olgan. Tadqiqotimizning oldingi bob va fasllarida o'zbek xalqi shevalari va o'zbek adabiy tilining o'zaro munosabati, izohli lug'atlarda sheva unsurlarining aks ettirilishi masalalariga e'tibor qaratib o'tildi. Ushbu qismda mavjud izohli lug'atlardagi shevaga oid so'zlar tavsiflarini takomillashtirish va umumfilologik izohli lug'atlarga kiritilishi kerak bo'lgan terminlar masalasiga e'tibor qaratamiz.

Avvalo, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan so'zlar tavsifiga nazar solsak. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ma'lum bir so'z keltirilib, leksemaning tavsifi berilar ekan, uning bir necha jamiyat sohalariga, qismlariga tegishli bo'lgan, ularda qo'llanishi bilan bog'liq yuzaga chiquvchi ma'nolari, barqarorlashgan bosh va ko'chma ma'nolari alohida qayd qilinadi.

Aytish lozimki, bugungi globallashuv davrida til imkoniyatlarini oshirish, uning leksik tarkibini kengaytirish, ifoda va mazmun mundarijasini oshirish muhim masalalardan. Bunda dialektlardan adabiy til leksikasi uchun so'z olish, shevalarda mavjud imkoniyatlarni adabiy tilda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, izohli lug'atlarda berilgan dialektal birliklarning tavsiflarini ko'rib chiqish, zamon talablari va shevaviy imkoniyatlardan foydalangan holda mazmun mundarijasini boyitish, tavsifiy jihatdan tanqidiy yondashib, mohiyatan mukammallashtirish ham kun tartibidagi muhim vazifalardan sanalishi lozim. Yuqorida qayd etganimizdek, shevalar hisobiga o'zbek tili imkoniyatlarini oshirishimiz, izohli lug'atlarda ularni aks ettirishimiz, dialektal leksemalarning leksikografik talqinlariga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. Tadqiqotimiz davomida "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan tashqari bir nechta lug'atlarni kuzatdik. Ularda qator shevaga oid leksemalar adabiy tildagi leksema semasi bilan izohlangan yoki adabiy tildagi leksema dialektal ma'no bilan tavsiflangan holatlarga guvoh bo'ldik. Shulardan kelib

chiqib, shevaga oid leksemalar tavsifini takomillashtirish zarurati mavjud ekanligini ta'kidlamoqchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 4256.
2. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975
3. 3. <https://uza.uz/uz/posts/tiriklay-k-milgan-k-zlar-01-10-2019>
<https://www.dialect.uz/about>.